

## TOG‘ JINSLARINI MAYDALASHDA FOYDALANILADIGAN TOSH MAYDALAGICHALAR (DROBILKA), MAYDALASH USULLARI HAMDA ULARDA ISHLATILINADIGAN USKUNA VA JIHOZLARNI O‘RGANISH

Usmonov Akbarali Isroiljon o‘g‘li

Andijon mashinasozlik instituti

“Payvandlash ishlab chiqarish texnologiyasi va jihozlari”

Mutaxassisligi magistranti.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tog‘ jinslarini asosan turli o‘lchamlardagi toshlarni maydalashda foydalilanidigan tosh maydalagichlar (Drobilka), maydalash usullariga ularga qo‘yiladigan umumiy talablar, tosh maydalagich mshinasining maydalash darajasini aniqlash formulasi hamda tosh maydalagich mashinasida ishlatilinadigan uskuna va jihozlar to‘g‘risida ma’lumotlar jamlangan.

**Kalit so‘zlar:** Tosh maydalagich, xom ashyo, maydalash, yanchish, sement, beton, ishchi organ, maydalash darjasasi, pachaqlash usuli, zarbli usul, chaqmoqli usul, sindirish usuli, ishqalab ezish usuli, konstruksiya, fizik-mexanik xossalar.

Yurtimizda ayni vaqtda aniq hisob-kitoblar bilan tuzilgan reja, dastur va loyihalar asosida yangi zamonaviy talablarga to‘laqonli javob bera oladigan yo‘llar qurilishi davom etmoqda. Bu esa yo‘l qurilishida zarur bo‘luvchi xom ashyyoga xususan turli o‘lchamlarda maydalangan toshlarg bo‘lgan ehtiyojni ortishiga olib kelmoqda. Ushbu ehtiyojni qondirish uchun yurtimizda tosh maydalagich mashinalaridan tuzilgan ishlab chiqarish liniyalariga ega ko‘plab korxonalar o‘z ish faoliyatlarini olib bormoqda. [1]

Tosh maydalagich mashinalaridan foydalaniolib, tabiiy holdagi yoki mavjud qattiq-mo‘rt jism (material) o‘lchamlarini talab qilinadigan o‘lchamlargacha qisqartirish jarayoniga **maydalash** yoki **yanchish** jarayoni deb ataladi. Ayrim hollarda bu jarayonni dastlabki ishlov jarayoni xom ashyyoni tayyorlab berish bo‘lib, undan so‘ng esa material qayta ishslash uchun yuboriladi, Bunga misol qilib: sement ishlab chiqarish jarayonini olishimiz mumkin. Boshqa hollarda, misol uchun aytganda: yo‘l qurilishi va beton qorishmasida ishlatiladigan maydalangan tosh (щевень) hosil qilishda to‘g‘ridan to‘g‘ri talab tosh maydalash uskunasi tomon olib boriladi. [2]

Drobilka yordamidsa maydalangan tosh bo‘laklar, ularning o‘rtacha diametriga qarab yirik (100...350 mm), o‘rta (40...100 mm) va mayda (5...40 mm) turlarga ajratiladi. [3]




### 1-rasm. Drobilka yordamidsa maydalangan tosh bo‘laklar

Agar biz maydalash darajasini i, maydalanmagan materialning o‘rtacha diametrini D va maydalangan materialning o‘rtacha diametrini d deb olsak unda maydalanish darajasini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$i = \frac{D}{d};$$

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimdek qurilish materiallari uchun asosiy xom ashyo tog‘ jinslari hisoblanadi. Ushbu tog‘ jinslariga turli uskuna va mashinalardan foydalanilgan holda ishlov berish uchun ularning asosiy fizik-mexanik tarkib va xossalari, xususan: mo‘rtligi, qattiqligi, mustahkamligi, o‘lchami va hosil bo‘lishi kabilarni o‘rganish zarur.[4]

Yirik hajmdagi va turli qattiqlikdagi tog‘ jinslarini maydalovchi tosh maydalash mashinalarining maydalash uskunalari o‘zlarining vazifasi va ishlatish jarayoni bo‘yicha quyidagi usullarga bo‘lish mumkin; pachaqlash (2,a-rasm), zarbli (2,b-rasm), chaqmoqli (2,c-rasm), sindirish (2,d -rasm), ishqalab ezish (2,e-rasm).[5]



### 2-rasm. Tosh maydalagich mashinasining maydalash uskunalari.

a-pachaqlash; b-zarbli; c-chaqmoqli; d-sindirish; e-ishqalab ezish.

Olim va tatqiqotchilaring izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda maydalash jarayolari aralash usulda amalga oshiriladi, masalan, pachaqlash bilan ishqalab ezish, zarb bilan birga ishqalab ezish. Maydalaniladigan tog‘ jinslarining yani materialning tarkibi, shakli, o‘lchami va tayyor mahsulotga qo‘yiladigan turli talablariga asoslanib, maydalash usullari va ularga tegishli mashinalar tanlanadi.

Yuqoridagi xossalari va talablarga tayinmagan holda tanlangan maydalash usullani ish unumdorligini hamda maydalash mashinalari ishchi organlarining ishlash muddatini pasaytirishiga olib keladi.[6]

Xulosa qilib aytildigan bo'lsa, qattiq va turli shakldagi tog' jinslarini talab qilingan o'lchamlarda maydalashda tosh maydalash uskunalarida aralash usulidan foydalanish anchagina samarali hisoblanadi. [7] Shu bilan bir qatorda, materiallarni maydalovchi mashinalar turlicha bo'lsada, ular quyidagi umumiyligi talablarga javob berishi kerak:

- konstruksiyasining oddiy bo'lishi, unga xizmat ko'rsatish qulay va xavsiz bo'lishi;
- har xil xavflardan saqlovchi mexanizmlarining bor bo'lishi;
- tovush, tebranma va havoning changlik darajasi kabi sanitargigienik me'yorda bo'lishi; [8]

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Usmonov A.I. (2023) TOSH MAYDALAGICH DETALLARINI LABARATORIYA SHAROITIDA YEYILISHGA SINASH JARAYONINI TEXNOLOGIK TAVSIFI. Scientific Impulse. Tom-2. 551-552.
2. Usmonov A.I., Pusatova O. (2023) YIRIK HAJMDAGI TOG 'JINSLARINI MAYDALASHDA ISHLATILINADIGAN JAG 'LI TOSH MAYDALAGICH DASTGOHINING TEXNOLOGIK TAVSIFINI HAMDA KONSTRUKTIV XUSUSIYATLARINI O 'RGANISH. Analysis of world scientific views International Scientific Journal. Tom-1. 81-86.
3. Baymirzayev A. R. (2022). Investigation of Innovative use Methods in Bearing Rings Manufacturing. "AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT" Scientific Journal, Tom-1, 21-23.
4. Baymirzayev A. R. (2022). Use of Innovative Logical Programs in the Design of Bearing Rings. "JournalNX" Scientific Journal, Tom-6, 183-184.
5. Baymirzayev A. R. (2023). OPTIMIZATION OF THERMAL TREATMENT METHODS FOR LOCAL PROCUREMENT OF INDUSTRIAL BEARING MATERIALS. "Modern Scientific Research International Scientific Journal" Scientific Journal, Tom-1, 5-9.
6. Xamidjanovich X. X. Improvement of the working chamber of the saw gin //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 4. – С. 297-299.
7. Xamidjanovich X. X. et al. Restoration Erosion Working Surface Of Gin Rib By Welding Process //The American Journal of Engineering and Technology. – 2021. – Т. 3. – №. 06. – С. 153-159.
8. Фархшатов М. Н., Майдинов А. Ш., Мадазимов М. Т. ПЕРСПЕКТИВЫ СОТРУДНИЧЕСТВА С РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН В ОБЛАСТИ ВОССТАНОВЛЕНИЯ ИЗНОШЕННЫХ ДЕТАЛЕЙ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ МАШИН //Труды ГОСНИТИ. – 2018. – Т. 130. – С. 163-167.